

BOLALAR BILAN IJTIMOIIY ISH OLIB BORISH.

Xoliqulova Sarvara Ikrom qizi
Berdiqulova Shahrizoda Tolib qizi
SamDU 1-bosqich talabalari.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yangi O'zbekistonning ijtimoiy muhofaza tizimi shakillanishi va rivojlanishi jarayonlari tahlil qilingan. So'nggi yillarda mamlakatda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, manzilli yordam mexanizimini kuchaytirish va ijtimoiy adolat tamoyillarga asoslangan yangi tizimlarni shakillantirish bo'yicha keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bolalar manfaatlarini himoya qilish, ularning sog'lom o'sishi va talim olishlari uchun ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish mazkur tizimning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Maqolada bolalarni qullab-quvvatlash bolalarning huquqlarini himoya qilish qashshoqlikka qarshi kurash hamda ijtimoiy muhovaza tizimi raqamlashtirish jarayonlari batafsil tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bolalar bilan ijtimoiy ish, bola huquqlari, ijtimoiy himoya, xavf ostidagi bolalar, oilaviy muhit, bolalar farovonligi.*

Bola bu - voyaga yetmagan, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlanib borayotgan inson. Bola oila va jamiyatning e'tiborida va himoyasida bo'ladi. Uning sog'lom o'sishi, xavfsizligi va rivoji - eng muhim vazifa hisoblanadi. Bola jamiyatning eng muhim a'zosi bo'lib, kelajak avlodning davomchisi hisoblanadi. U jamiyat taraqqiyoti, madaniyati va qadriyatlarining davomiyligini ta'minlaydi. Bola ta'lim tarbiya va ijtimoiy himoya orqali voyaga yetadi va kelajakda jamiyatning faol fuqarosiga aylanadi.

Kimni va qanday asosda bola, deb hisoblash mumkinligi haqidagi tasavvurlar turli ma'daniyatlar va an'analarda o'xshash. BMTning bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga muvofiq "Har bir inson mavjudoti 18 yoshga yetgunga qadar, agar mazkur bolaga qo'llanilgan qonunga ko'ra avvalroq voyaga yetmasa" bola deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolati to'g'risida"gi Qonunida shaxs 18 yoshga yetgunga qadar bola, deb ataladi. Mazkur qonunga ko'ra, davlat siyosati yo'nalishlaridan biri bolaning or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga imkoniyat yaratishdan iborat. Qonunda bolaning tenglik va tahqirlashdan himoya qilish hamda uning shaxsiy hayotiga noqonuniy tarzda aralashuvdan himoya qilish huquqlari belgilab qo'yilgan. Qonunda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, adolat qilishni ham qamrab olgan holda bola qadr-qimmatini himoya qilishning kafolatlari nazarda tutilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar 8 million nafarni tashkil etadi. Bolalardan iborat aholining demografik tuzilmasida bolalarni himoya qilish muammosi, zarur yordam ko'rsatish muhim ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega.

O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilish oila, jinoyat, fuqaro va mehnat qonunchiligiga muvofiq ravishda ta'minlanadi. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda bolalarning sog'liqni saqlash, talim, ijtimoiy ta'minot va har tomonlama rivojlantirish sohalarida huquqlari kafolatlari belgilab qo'yilgan. Mazkur qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar huquqlari kafolatlariga alohida urg'u berilgan. Qonunchilikda belgilangan asosiy masalalar bolaning oiladagi shaxsiy huquqlarini amalga oshirishda bolaning manfaatlarini ota-onalar tomonida huquq va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonini, sud tomonidan vasiylik masalasi buyicha ish olib borish jarayonida bola manfaatlarini etiborga olish zaruratini qamrab oladi. Oilaviy kodeks mumkun bulgan asosiy qonunchilik hujjati hisoblanadi.

Milliy darajada bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishning amaliy natijalarga olib keluvchi asoslarni takomillashtirish masalalari O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri hisoblanadi. Keng ko'lamli, kompleks chora tadbirlar natijasida mamlakatda aholining hayot davomiyligi 1990 yilda 67 yosh bo'lsa, 2017 yilga kelib 74 yoshga qadar uzayadi.

Bolalar ulimi 3 marotabaga kamaydi. Mamlakat oldida mazkur ko'rsatkichlarni yanada yaxshilash muammosi turibdi. Shu munosabat bilan mamlakat Prezidenti O'zbekistonda amal qilayotgan ijtimoiy himoya modelini butun jahon tomonidan tan olingan xalqaro standartlar va zamonaviy talablar darajasiga moslashtirishni taminlash zarurligini ta'kidlab o'tadi. Bola maanfatini himoya qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya tizimi -bu bolalarning bevosita oilaning iqtisodiy, ijtimoiy va manaviy manbalari, shu biln birga barcha asosiy xizmatlardan foydalanish imkonlarning mavjudligi bolan bog'liq bo'lgan farovonlik pirinsipi asosida yotuvchi tizim demzkdir. Ijtimoiy himoyaning amaliy tizimi bolalar va ularning oilalarning ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini oldini olish va bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi.

Ilmiy tatqiqotlarda bolalar bilan ijtimoiy ish profilaktik yo'nalish sifatida baholanib, muammolarining erta aniqlanishi ijtimoiy xavflarni sezilarli darajada kamaytirish isbotlangan. Xavf ostidagi bolalar bilan tizimli ijtimoiy ish olib borilgan holatlarda ularning ta'limga moslashuvi va ijtimoiy faolligi oshishi kuzatiladi.

Ta'tqiqotlarga ko'ra, bolalar bilan ishlashda oila bilan hamkorlik ijtimoiy ish samaradorligini 2-3 barobarga oshiradi. Bolalik davrida ko'rsatilgan ijtimoiy yordam kelajakda ijtimoiy moslashuv va mustaqil hayotga tayyorgarlikni ko'chaytiradi. Bolaning farovonligini va rivojlanishini namoyon qilish pirinsipi ularning eng oliy manfaatlarni ta'minlash pirinsipi bilan bog'liq. Masalan, Shotlandiya hukumati bolalar farovonligining ko'rsatgichini belgilab berdi. Farovon hayot kechirishi uchun bolalar



quyidagilarga ega bo'lishi zarur; xavfsizlik, sog'lomlik, faollik, tarbiyalilik, intiluvchan, hurmatga sazovor, ma'suliyatli va odobli. Ushbu ko'rsatgichlar amaliyotchi mutaxassislarga kerkakli ma'lumotlar olish, shuningdek bola yoki o'smir uchun tuzilmaga oid reja tuzish imkonini beradi.

Xulosa. Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish -bolalarning normal rivojlanishi ,huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim jarayondir. Ijtimoiy xodimlar bolalarning ehtiyolarini aniqlash ,muammolarini o'rganish va ularni bartaraf etish uchun zarur yordam choralarni beradi. Bu ish nafaqat bola bilan balki uning oilasi, o'qituvchilari va jamiyat bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ushbu yo'nalishning asosiy maqsadi- bolalar uchun xavfsiz , sog'lom va qo'llab quvvatlovchi muhit yaratishdir. Shuningdek, ijtimoiy ish bolaning kelajak hayotga moslashuvi va ta'lim olishi ,jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Demak, bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish- jamiyatning ertangi kunini mustahkamlaydigan har bir bolaga teng imkoniyat yaratadigan muhim ijtimoiy vaziyatdir.

Shu sababli, bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish davlat organlari, ta'lim massasalari, sog'liqni saqlash tizimi hamda nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bolaning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda yondashuv qo'llash , ularning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy moslashuvni ta'minlash ijtimoiy ishning ustuvor vazifalaridan biridir. Bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish jamiyatning barqarir rivojlanishiga xizmat qiladi, kelajak avlodning barkamol, ma'suliyatli va faol fuqaro bo'lib voyaga yetishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Manaviyat 2008.
2. Qodirov N. "Bolalar bilan ijtimoiy ish"-2020
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolotlari to'g'risida"gi qonun.
4. Ijtimoiy ish bo'yicha o'qun-uslubiy qo'llanmalar va darsliklar 2017-2022.
5. UNICEF materallari .Bolalarni himoya qilish va ijtimoiy qo'llab quvvatlash bo'yicha qo'llanmalar.
6. BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi .1989.